

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14251811>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA GAPNING IFODA MAQSADIGA KO‘RA TURLARINI O‘RGATISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Akramova Aziza

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 202-guruh talabasi

M.A.Hamrayev

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika niversiteti
Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti dotsenti, filologiya fanlar nomzodi
E-mail: m.a.hamrayev@gmail.com

***Annotatsiya:** Boshlang‘ich sinflarda ona tili ta‘limi juda muhim bo‘lib, uning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarga gap turlarini to‘g‘ri tushunish va qo‘llashni o‘rgatishdir. Bu jarayon o‘quvchilarning muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.*

***Kalit so‘zlar:** darak gap, so‘roq gap, buyruq gap, undov gap.*

***Аннотация:** Обучение родному языку очень важно в начальных классах, и одна из его основных целей — научить учащихся правильно понимать и использовать типы предложений. Этот процесс помогает учащимся развивать коммуникативные навыки.*

***Ключевые слова:** изъявительное предложение, вопросительное предложение, повелительное предложение, восклицательное предложение.*

***Abstract:** Teaching the native language is very important in elementary grades, and one of its main goals is to teach students to understand and use sentence types correctly. This process helps students develop communication skills.*

***Keywords:** indicative sentence, interrogative sentence, imperative sentence, exclamatory sentence.*

Boshlangich sinflarda ona tili o'qitishning asosida grammatik nazariya emas, balki nutqiy ko'nikma va orfografik malaka hosil qilish turadi. Bu davrda bolalar til materiallarini tahlil qilishga, asosiy tushunchalarni ajratishga o'rgatiladi. Materialni tahlil va tarkib qilish, guruhlash va umumlashtirish, o'xshash va farqli tomonlarini topish, nutqiy va orfografik ko'nikmalarni amalda tadbiq etish jarayonida bolalar har tomonlama rivojlanadi. 3-sinfda "Gap" bo'limi mavzusini o'rganishga 30 soat ajratilgan. O'quvchilar 2-sinfda gap bilan amaliy tanishganlar, nutqdan gaplarni ajratishni, gapning tugallangan mazmun bildirishini, gap oxirida ovozning pasayishi va to'xtam bo'lishini, yozuvda nuqta qo'yilishini, gap kim yoki nima haqda aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan so'zni aniqlashni, gap tuzishni va gapni savollar orqali kengaytirishni, gapning birinchi so'zi bosh harf bilan boshlanishini bilib olganlar. 3-sinfda o'quvchilarning "Gap" mavzusi yuzasidan olgan bilimlari takrorlanib, mustahkamlanadi va kengaytiriladi.

So'zlovchi o'z oldiga turli maqsadni qo'yadi. Ma'lum voqea hodisa haqida xabar beradi yoki noma'lum bo'lgan biror voqea hodisa haqida ma'lumot olishni istaydi, yoki tinglovchini biror narsani bajarishga undaydi, yoki shu haqida istak bildiradi, yoki turlicha xis-hayajonni bildiradi.

Shunga ko'ra gaplar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Darak gaplar.
2. So'roq gaplar.
3. Buyruq gaplar.
4. Undov gaplar.

Borliq hodisalarini tasdiq yoki inkor yo'li bilan xabar qiluvchi gap darak gap deyiladi.

Darak gap nutqda gapning boshqa turlariga qaraganda ko'p qo'llanadi.

Darak gap mazmunan va tuzilishi jihatdan rang-barang bo'ladi. Darak gap darak intonatsiyasi bilan aytiladi.

Masalan:

Ali bugun maktabga kelmadi.

Bunday gaplarning xarakterli xususiyati:

-kesimi tasdiq yoki inkor shaklida turgan aniqlik maylidagi fe'llar bilan, ba'zan tasdiq yoki inkor shaklidagi otlar bilan ifodalanadi;

-darak ohangi bilan talaffuz qilinadi;

-darak ohangi gap oxiriga qarab pasayib boradi;

-gap bo'laklari to'g'ri tartibda joylashadi.

Darak gap oxiriga nuqta qo'yiladi.

So'zlovchiga noma'lum bo'lgan voqea-hodisa, harakat-holat haqida ma'lumot olish ko'zda tutiladigan gap so'roq gap deyiladi.

So'roq gaplar ko'proq dialogik nutqda qo'llanadi. Bunday gaplar alohida intonatsiya bilan aytiladi. Masalan:

Ko'chatlarga kim suv quydi?

Bunday gaplar oxiriga so'roq belgisi qo'yiladi.

So'roq gaplar quyidagicha hosil qilinadi:

1. So'roq olmoshlari yordamida.
2. So'roq yuklamalari yordamida.
3. So'roq ohangi yordamida.

So'zlovchining biror narsaga buyurish-xohishini bildiradigan gap buyruq gap deyiladi. Buyruq gaplarning kesimi buyruq maylidagi fe'l bilan ifodalanib, buyurish, da'vat qilish ma'nolarini bildirgan gaplar.

Masalan: Chiroyli yoz.

Buyruq gaplarning kesimi buyruq shaklidagi fe'llar bilan ifodalanadi. Buyruq gap oxiriga nuqta, ba'zan undov belgisi qo'yiladi.

Undov gap fikrni kuchli his-hayajon bilan ifodalaydigan, kuchli ohang bilan aytiladigan gaplardir. Ular shodlik, quvonch, suyunish, qo'rquv, tantana, taajjub, qayg'u, afsuslanish kabi turli hissiyotlarni ifodalaydi va baland ohangda aytilishi bilan boshqa gap turlaridan farq qiladi. Yozuvda undov gapning oxiriga undov belgisi qo'yiladi. Masalan:

Voy, qomatingdan onang o'rgilsin! Qadamlaringizga hasanot!

His-hayajon gaplar his-hayajon ohangi bilan aytilgan darak, so‘roq, buyruq shaklidagi gaplardir. Masalan:

Ey Vatan! Polvonlaring bor bo‘lsin! Uyg‘oq bo‘lsin!

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga gap turlarini o‘rgatishda ijodiy mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ijodiy mashqlarda o‘quvchilar o‘zlari erkin ravishda gap tuzadilar.

Boshlang‘ich sinflarda ijodiy mashqlarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Gap tuzish uchun mavzu beriladi, o‘quvchilar shu mavzuga mos gap tuzadilar: „Quyoshli kunda“, „Bizning uy“ yoki „Quyvon va tipratikan“ kabi.

2. Narsa rasmi yoki sujetli rasm beriladi, o‘quvchilar rasm asosida bir yoki bir necha gap tuzadilar.

3. Ikki-uchta „tayanch“ so‘z beriladi, o‘quvchilar shu so‘zlarni qatnashtirib gap tuzadilar. Tayanch so‘z sifatida bolalarning faol lug‘atiga aylantirish zarur bo‘lgan so‘zlar olinadi. Ijodiy mashqlarda o‘quvchilar o‘zlari erkin ravishda gap tuzadilar.

Bu mavzuni o‘quvchilarga yanada osonroq qilib o‘zlashtirishlari uchun turli xil metodlardan foydalansak bo‘ladi:

1. Misollar orqali o‘rganish

Har bir gap turiga oid misollar keltirish va ularni tahlil qilish. Masalan, "Bu kitob juda qiziqarli." — darak gap.

2. Rol o‘ynash orqali.

O‘quvchilarni turli vaziyatlarda gaplarni qo‘llashga undash. Masalan, bir o‘quvchi savol beradi, boshqasi javob beradi.

3. Interfaol mashg‘ulotlar orqali.

"Kim gap turini topadi?" kabi o‘yinlar orqali bolalar gap turlarini aniqlashga o‘rganadilar.

4. Guruhiy ishlar orqali.

Guruhlar shakllantirib, har biriga gap turlarini aniqlash bo‘yicha topshiriqlar berish.

Bu usul o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni oshiradi.

5. Mashqlar orqali.

Turli gap turlarini qo'llab, matnlar yaratishga undash. Bu ularning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi.

6. Tahlil orqali.

O'quvchilarga matn berib, undagi gap turlarini aniqlashni topshirish. Bu usul nazariy bilimlarni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda gap turlarini o'rgatish jarayonida nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratish muhim. O'quvchilarni faol ishtirok etishga undash orqali ularning til qobiliyatlarini samarali rivojlantirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev "Ona tili o'qitish metodikasi". 2009. 321-bet.

2. Hamrayev Madrim, Shodmonqulova Dilorom, Dosanov Nuriddin "Ona tili va bolalar adabiyoti (1-qism ona tili). 2022. 151-152-bet.

3. Nargiza Erkaboyeva, Nosirjon Uloqov, Mo'minjon Siddiqov, Ilhomjon Madrahimov "O'zbek tilidan maruzalar to'plami". 2021. 466-468-bet.

4. Internet resurslari(azkurs.uz)